

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗІRLІГІ
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**MEXANIKA VA MOLEKULYAR FIZIKA
O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi: 500000– Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lif sohasi: 530000–Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lif yo'nalishi: 60530700 - Astronomiya

Fan kodi MM11212		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-2	ECTS-Kreditlar 6-6	
Fan turi majburiy		Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4-4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mexanika va molekulyar fizika		180	180	360
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda, bo'lajak fizika o'qituvchisiga zarur bo'lgan darajada makro va mikro dunyoda sodir bo'ladigan harakat va uning turlari haqida, moddaning xususiyatlari hamda makroskopik sistemalarning turli agregat holatlardagi fizik xossalari haqida tushuncha va bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga Mexanika va molekulyar fizika ga doir amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan barcha mavzular bo'yicha masalalar yechish, laboratoriya ishlarini tashkil qilish, o'tkazish va hisob kitob ishlarini bajarib, ularga doir xulosalar chiqara olish, fizika qonuniyatlarining munosabatlarini to'g'ri aniqlash kabi vazifalarni o'rgatishdan iborat.				
	II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Mexanika faniga kirish. Kinematika tushunchalari. Vektor ustida amallar. To'g'ri chiziqli harakat grafiklari. Fizika fanining maqsad va vazifalari. O'quv mashg'ulotlari turlari va hajmi. Talabalar bilimiga qo'yilgan talablar. Reyting tizimi va mashg'ulotlarda talabalarni baholash mezoni. Fizika fanining predmeti. Fizikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Fizika fanining rivojlanish tarixi. Fizikaning metodologiyasi. Kinematika tushunchalari. Fizik kattaliklar. Birliklar sistemasi. O'lchamliklar. Fazo va vaqt. Sanoq sistemasi. Kinematika asoslari. Fizikada aniqlik. Vektor ustida amallar. To'g'ri chiziqli harakat grafiklari. 2-mavzu. Harakatning kinematik tenglamalari. Tezlikning turli sanoq sistemalarida berilishi. Kinematika. Moddiy nuqta, traktoriya, yo'l va ko'chish. Harakatning kinematik tenglamalari. To'g'ri chiziqli harakat. Tezlik va uning birligi. 3-mavzu. Tezlanishning turli sanoq sistemalarida berilishi Tezlanish va uning birligi. O'rtacha va oniy tezliklar. To'g'ri chiziqli tekis va notekis harakatlar uchun harakatning, tezlikning va tezlanishlarning grafiklari. Tezlik grafigidan foydalanib oniy tezlikni aniqlash. 4-mavzu. Egri chiziqli harakat. Egri chiziqli harakat haqida tushuncha. Egri chiziqli harakatda tezlanish. Normal va tangensial tezlanishlar				

Gorizontal va gorizontga nisbatan burchak ostidan otilgan jismalarning harakati. Gorizontal otilgan jismning traektoriyasi, maksimal ko'tarilish balandligi, uchish vaqt va uzoqligi. Aylana bo'ylab harakat. Burchak tezlik va burchak tezlanish. Chiziqli va burchak tezliklar orasidagi bog'lanish. Aylana bo'ylab tekis tezlanuvchan, tekis va tekis sekinlanuvchan harakatlarda normal, tangensial va to'la tezlanishlar.

5-mavzu: Dinamika qonunlari. Dinamikaning ikki masalasi. Kuch yoki tezlanish funksiya ko'rinishda berilganda boshqa kattaliklarni aniqlash

Dinamika. Nyutonning I qonuni. Inersial sanoq sistemalari. Nyutonning birinchi qonunining aks tasdig'i. Kuch va uning birligi. Tabiatda kuchlar. Massa va uning birligi. Nyutonning II qonuni. Nyutonning III qonuni. Massaning additivligi.

6-mavzu: Ishqalanish kuchi. Ichki ishqalanish kuchi va uning harakatga bog'liqligi. Qarshilikli muhitdagi jismning vertikal harakati.

Ishqalanish kuchi. Ishqalanish kuchlari turlari. Ichki ishqalanish kuchi va uning harakatga bog'liqligi. Qarshilikli muhitdagi jismning vertikal harakati.

7-mavzu. Erkin tushish tezlanishining balandlikka bog'liqligi.

Erkin tushish tezlanishi. Erkin tushish tezlanishining balandlikka bog'liqligi. Butun Olam tortishish qonuni. Gravitatsion doimiylik. Gravitatsion maydon (GM) kuchlanganligi va potensiali. Kosmik tezliklar.

8-mavzu. Mexanik ish va quvvat. Energiya.

Kuchning ishi va uning birligi. Konservativ va nokonservativ kuchlar va sistemalar. Quvvat va uning birligi. Kinetik va potensial energiya. Energiyaning saqlanish qonuni. Ko'char bloklar yordamida kuchdan yutishga doir misollar.

9-mavzu. Jism va kuch impulsi. Impulsning saqlanish qonuni.

Jismning impulsi. Jismlar sistemasining impulsi. Impulsning saqlanish qonuni. Elastik va noelastik to'qnashuvlar. Tiklanish koeffitsiyenti.

10-mavzu: Moddiy nuqtalar sistemasining harakati. O'zgaruvchan massali jism harakati.

Moddiy nuqtalar sistemasining harakati. O'zgaruvchan massali jism harakati qonunining soddalashtirilgan natijasi. O'zgaruvchan massali jism harakatining boshqacha ayrim ko'rinishlari.

11-mavzu: Noinersial sanoq sistemalarida harakat. Koriolis tezlanishi. Yer sirtida harakatlanayotgan jismga ta'sir etuvchi kuchlar.

Noinersial sanoq sistemasi. Inersiya kuchlari. Tekis aylanayotgan sanoq sistemasi. Markazdan qochma kuch. Yer sirtida harakatlanayotgan jismga ta'sir etuvchi kuchlar. Koriolis kuchi.

12-mavzu: Kesishuvchi kuchlar sistemasi va uning muvozanati. Kuch momenti, juft kuch momenti va ularning vektorligi. Kuchning o'qqa nisbatan momenti. Muvozonat shartlari.

Kesishuvchi kuchlar sistemasi va uning muvozanati. Kuch momenti, juft kuch momenti va ularning vektorligi. Kuchning o'qqa nisbatan

momenti. Muvozonat shartlari.

13-mavzu: Qattiq jism mexanikasiga kirish.

Inersiya momenti tushunchasi. Qattiq jismning harakati. Kuch momenti. Qo'zg'almas o'q atrofida aylanayotgan qattiq jism kinetik energiyasi. Inersiya momenti. Shteyner teoremasi. Turli geometrik shakldagi jismlarning inersiya momentlarini hisoblash.

14-mavzu: Qattiq jism mexanikasi. Impuls momenti. Aylanma harajat dinamikasining asosiy tenglamasi. Giroskop

Aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi. O'zgarmas kuch momentining bajargan ishi. Impuls momenti va uning saqlanish qonuni. Turli geometrik shaklgaga ega bo'lgan jismlarni impuls momentlari. Moddiy nuqtalar sistemasining impuls momenti.

15-mavzu: Giroskop. Giroskop o'qining harakati. Pressessiya va giroskopik kuchlar

Giroskop. Giroskop o'qining harakati. Pressessiya va giroskopik kuchlar. Erkin o'qlar. Giroskop.

16-mavzu: Mexanik tebranishlar. Fizik mayatnik. Garmonik tebranuvchi turli mayatniklar.

Tebranma harakat. Garmonik tebranishlar. Tebranuvchi sistemaning tezligi va tezlanishi. Tebranuvchi sistemaning energiyasi. Matematik, prujinali, fizik va buralma mayatniklar.

17-mavzu: So'nuvchi mexanik tebranishlar

So'nuvchi mexanik tebranishlar xaqida tushuncha. So'nuvchi tebranishning umumiy holdagi differensial tenglamasi. Muhit qarshiligi uncha katta bo'lмаган hol. Nodavriy so'nuvchi harakat. Chegaraviy holdagi nodavriy harakat.

18-mavzu: Majburiy mexanik tebranishlar

Majburiy mexanik tebranishlar xaqida tushuncha. Nuqtaning majburiy tebranma harakati. Nuqtaning tepkili tebranishlari. Rezonans hodisasi.

19-mavzu: Mexanik to'lqinlarda Doppler effekti (Doppler siljishi)

Doppler effekti haqida tushuncha. Manba tinch, kuzatuvchi harakatda bo'lgan hol uchun Doppler effekti. Kuzatuvchi tinch, manba harakatda bo'lgan hol uchun Doppler effekti. Umumiy holda mexanik to'lqinlar uchun Doppler effekti. Tovushdan tez harakat. Zarb to'lqini.

20-mavzu: Suyuqliklar mexanikasiga kirish

Ideal suyuqlik oqimi uchun Bernulli tenglamasi. Ichki ishqalanish - qovushqoqlik. Laminar oqimda ichki ishqalanish uchun Nyuton tenglamasi. Nyuton va Nyuton bo'lмаган suyuqliklar. Jismning qovushqoq muhitidagi harakati. Stoks qonuni. Qovushqoq suyuqlik va gazning trubadagi harakati. Puzeyl formulasi. Gidravlik qarshilik tushunchasi. Ketma-ket va parallel trubalar uchun gidravlik qarshilikni aniqlash. Qovushqoq muhit uchun Reynolds soni.

21-mavzu: Lorens almashirishlari va undan kelib chiqadigan natijalar. Tezliklarni almashirish

Efir gipotezasining muvaffaqiyatsizligi. Eynshteyn postulatlari. Lorens

almashtirishlari. Lorens faktori. Lorens almashtirishlaridan kelib chiqadigan natijalar. Tezliklarni almashtirish (tezliklarni qo'shish). Yo'nalishning nisbiyligi. Relyativistik Doppler effekti. Qizilga va binafshaga siljishi.

22-mavzu: Relyativistik dinamika asoslari

Efir Relyativistik dinamikaning asosiy tenglamasi. Massa va energiya orasidagi bog'lanish. Relyativistik kinetik energiya. Energiya va impuls orasidagi bog'lanish.

23-mavzu. Molekulyar fizika faniga kirish.

Molekulyar fizika va termodinamika bo'limining predmati, maqsad va vazifalari. Bo'limning boshqa fanlar bilan aloqasi; Intensiv va ekstensiv kattaliklar, termodinamik sistemalar hamda mikroskopik va makroskopik parametlar haqida tushuncha; Modda tuzilishini o'rganishning ikki usuli; Molekulyar kinetik nazariyaga asos bo'luvchi shartlar; Nisbiy atom massasi, moyar massasi, modda miqdori.

24-mavzu. Ideal gaaz haqida tushuncha. Temperatura va bosimni o'lhash. Molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi. Dalton qonuni.

Ideal gaz haqida tushuncha; Temperatura va uni o'lhash shkalalari, termometrlar; Bosim tushunchasi va uni o'lhash qurilmalari; Molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi.

25-mavzu. Boltzmann va dalton qonuni. Holat tenglamasi va undan cheksiz kichik jarayonlar uchun kelib chiqadigan natijalar.

Boltzman va Dalton qonuni; Universal-gaz doimisi, ideal gaz holat tenglamasi, birlashgan gaz qonuni, Loshmidt soni; Issiqqlikdan kengayish, bosimning termik koefitsiyentlari va moddaning hajmiy siqilsih moduli; Cheksiz kichik jarayonlar uchun jarayonlar uchun holat tenglamasidan kelib chiqadigan natijalar.

26-mavzu. Izojarayonlar, adiabatik va politropik jarayonlarda $P=P(V)$, $P=P(T)$ hamda $V=V(T)$ bog'lanishlar

Izojarayonlar. Izotermik, izoxotik, izobarik jarayonlar va bu jarayonlar uchun izografiklar; Adiabatik jarayon uchun $P=P(V)$, $P=P(T)$, $V=V(T)$ bog'lanishlar va ularning grafiklari; Politropik jarayon uchun $P=P(V)$, $P=P(T)$, $T=T(V)$ bog'lanishlar va ularning grafiklari.

27-mavzu. : Barometrik formula. Boltzmann taqsimot funksiyasi. Izotermik atmosfera uchun barometrik formulalar. Sun'iy gravitatsion maydon uchun barometrik formula.

Boltzman taqsimot funksiyasi. Izotermik atmosfera uchun barometrik formulaning turli ko'rinishlari; Temperatura o'zgaruvchan bo'lgan hol uchun barometrik formula; Sun'iy gravitatsion maydon uchun barometrik formula; Izotermik atmosferada balandlik bo'yicha havo tarkibining o'zgarishi; Erkin tushish tezlanishi o'zgarishini hisobga olinganda barometrik formula,

planetalar atmosferasining mavjudligi.

28-mavzu. Ehtimollik va taqsimot funksiyasi haqida tushuncha. Maksvellning molekulalarning tezliklar bo'yicha taqsimoti.

Ehtimollik va o'rtacha qiymat haqida tushuncha; Taqsimot funksiyasi haqida tushuncha; Molekulalarning tezliklar komponentasi bo'yicha taqsimoti; Molekulalarning tezliklar bo'yicha taqsimoti.

29-mavzu. Maksvell taqsimot funksiyasining turli ko'rinishlari. Taqsimot funksiyasidan turli natijalarни ciqarish. Nisbiy tezlik uchun taqsimot funksiyasi.

Maksvellning taqsimot funksiyasiga mexanik hodisalardan misollar keltirish; Maksvell taqsimotining turli ko'rinishlari; Tezliklar taqsimoti funksiyasidan molekulalarning o'rtacha tezligi, ehtimoli eng katta tezlik va o'rtacha tezliklarni keltirib chiqarish; Energiya taqsimoti funksiyasidan kinetik energiyaning o'rtacha qiymatini va eng katta ehtimoliq qiymatini keltirib chiqarish; Nisbiy tezlik va nisbiy tezlikning komponentalari uchun Maksvellning taqsimot formulasi.

30-mavzu. Molekulalarning o'rtacha erkin yugurish yo'li va o'rtacha to'qnashishlar soni. Effektiv kesim.

Molekulalarning o'rtacha erkin yugurish yo'li. Effektiv kesim; Birlik vaqtagi o'rtacha to'qnashishlar soni; Molekulalarning o'rtacha erkin yugurish yo'li va birlik vaqtagi o'rtacha to'qnashishlar sonini bosim va temperaturaga bog'liqligi; Gazlar uchun ko'chki tenglamasi

31-mavzu. Gazlarda diffuziya hodisasi. Statsionar va nostatsionar diffuziya. Siyrak gazlarda diffuziya.

Gazlarda diffuziya hodisasi. Statsionar diffuziya uchun Fik qonuni; Nostatsionar diffuziya; Statsionar o'zaro diffuziya; Siyrak gazlarda diffuziya

32-mavzu. Gazlarda ichki ishqalanish va issiqlik o'tkazish hodisasi. Gazlar uchun qovushqoqlik va issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentlari.

Gazlarda ichki ishqalanish – qovushqoqlik; Gazlarning trubada oqishi; Gazlarda issiqlik o'tkazuvchanlik. Statsionar issiqlik o'tkazuvchanlik; Nostatsionar issiqlik o'tkazuvchanlik; Siyrak gazlarda issiqlik o'tkazuvchanlik. Siyrak gazlarning trubalarda oqishi

33-mavzu. Issiqlik uzatish usullari. Termodinamikaning nolinchi qonuni. Erkinlik darajasi. Ichki energiya.
Issiqlik uzatish hodisasi, issiqliknинг mexanik ekvivalenti, kalorimetriya va

issiqlik sig‘imlari; Termodinamikaning nolinch qonuni; Erkinlik darajasi haqida tushuncha. Atom va molekula kinetik energiyasining erkinlik darajalari bo‘yicha taqsimlanishi. Ideal gaz ichki energiyasi. Ichki energiyaning o‘zgarishi. Yuqori temperaturalarda erkinlik darajasi va ichki energiya

34-mavzu. Ideal gazning bajargan ishi. Izojarayonlarda, adiabatik va politropik jarayonlarda bajarilgan ishni aniqlash. Gazning bajargan ishi haqida tushuncha. Izojarayonlarda bajarilgan ishlar. Puasson tenglamasi. Adiabatik jarayonda bajarilgan ish. Politropik jarayonda bajarilgan ish. Turli jarayonlarda ichki energiya o‘zgarishi va issiqlik miqdori ishoralarni aniqlash kabi ma’lumotlar bilan tanishamiz.

35-mavzu. Termodinamikaning birinchi qonuni va undan kelib chiqadigan natijalar. Ideal gazlar uchun issiqlik sig‘imlari, mayer va puasson formulalari. Politropikjarayon uchun issiqlik sig‘imlari

Termodinamikaning birinchi qonuni; Termodinamikaning birinchi qonunining turli izojarayonlar uchun tatbiqi; Turli izojarayonlar uchun solishtirma issiqlik sig‘imi va solishtirma molyar issiqlik sig‘imi. Mayer formulasi. Puasson doimiysi (adiabata ko‘rsatkichi). Politropik jarayon uchun solishtirma issiqlik sig‘imi;

36-mavzu. Qaytar, qaytmas va aylanma jarayonlar.

Termodinamikaning 2-qonuniga ta’riflar. Real va ideal issiqlik mashinasining f.i.k. otto va dizel sikllari

Kvazistatik, qaytar, qaytmas jarayonlar haqida tushuncha; To‘g‘ri va teskari aylanma jarayonlar haqida tushuncha. Termodinamikaning 2-qonuni va unga berilgan turli ta’riflar. Real issiqlik mashinasining FIK. Ideal issiqlik mashinasi (Karno sikli) ning FIK lari. Har xil sikllari (Otto sikli, Dizel sikli, Stirling sikli) va ularning FIK lari.

37-mavzu. Issiqlik nasosi yoxud sovitish mashinasi haqida tushuncha. Har xil sikllarda ishlovchi sovitish mashinalarining F.I.K.

Issiqlik nasosi yoxud sovitish mashinasi haqida tushuncha; Teskari Karno siklida ishlaydigan sovitish mashinasining unumdonligi. Har xil sikllari (Otto sikli, Dizel sikli, Stirling sikli) va ularning FIK lari. Konditsioner va sovitgichning ishlashi.

38-mavzu. Entropiya tushunchasi, uning termodinamik va statistik ma’nosi. Modda agregat holati o‘zgarganda entropiya

o'zgarishi.

Entropiya tushunchasi, entropiyaning termodinamik ma'nosi; Entropiyaning xossalari; Entropiyaning statistik talqini; Modda agregat holati o'zgarganda entropiyani aniqlash.

39-mavzu. Turli jarayonlarda entropiya o'zgarishi.

Entropiyaning o'sish qonuni. Termodynamikaning 3-qonuni

Modda agregat holati o'zgarganda entropiyani aniqlash; Entropiyaning o'sish qonuni va unga doir tekshirishlar; Termodynamikaning 3-qonuni.

40-mavzu. Entalpiya-erkin enegiya. Ximiyaviy energiya. Issiqlik funksiyalari. T-S diagrammalardan foydalnib turli sikllardagi F.I.K larini aniqlash.

Entalpiya tushunchasi, erkin enegiya; Ximiyaviy energiya; Issiqlik funksiyalari T-S diagrammalari va ulardan foydalanib siklning F.I.Kini aniqlash

41-mavzu. To'yingan bug' va uning xossalari. Absalyut va nisbiy namlik. Qaynash, kritik nuqta, gazning suyulishi. To'yingan bug'ning issiqlik sig'imi

To'yingan bug' va uning xossalari; Absalyut va nisbiy namlik, yog'ingarchilik bilan bog'liq tabiat hodisalar; Kritik nuqta va unga mos parametrlar; Gazning suyulishi To'yingan bug'ning issiqlik sig'imi.

42-mavzu. Real gazlar. Van-der-vaals tenglamasi. Van-der-vaals parametrlarini aniqlash. P-V izotermalari, uchlanma nuqta va fazaviy o'tishlar. Kritik kattaliklar.

Real gazlar haqida tushuncha; Van-der-Vaals tenglamasi, undagi parametrlarni aniqlash; P-V izotermalari, uchlanma nuqta, fazaviy o'tishlar Kritik kattaliklarni aniqlash

43-mavzu. Qattiq jismlarning turlari, kristall va amorf jismlar. Kristallarning ichki tuzilishi. Kristallarda nuqsonlar. Dislokatsiya. Moddalarning issiqlikdan kengayishi. Kristal jismlarning issiqlik sig'imi.

Kristall va amorf jismlar haqida tushuncha; Kristall jismlarning tuzilishi, yacheykalar; Kristallarda nuqsonlar, dislokatsiyalar, nuqsonlarning turlari; Turli moddalarning issiqlikdan kengayishini o'rganish; Chiziqli, hajmiy kengayish koefitsiyentlari; Kristallarning issiqlik sig'implari

44-mavzu. Past temperaturalar. Joul-tomson effekti. Suyultirilgan gazlaning xossalari. Suyuq gelyi.

Past temperaturalar va gazlarni suyultirish haqida tushuncha; Joul-Tomson effekti; Past temperaturada suyuladigan gazlaning xossalari; Suyuq gelyi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsya etiladi:

1. To'g'ri chiziqli tekis harakat. Tezlik.
2. To'g'ri chiziqli noteekis harakat.
3. Jismarning erkin tushishi. Yuqoriga tik otilgan jismning harakati.
4. Harakatning, tezlikning va tezlanishlarning grafiklari.
5. Egri chiziqli harakat. Normal va tangensial tezlanishlar.
6. Aylana bo'ylab harakat.
7. Gorizontal va gorizontga nisbatan burchak ostidan otilgan jismarning harakati.
8. Gorizontal otilgan jismning trayektoriyasi, uchish vaqt va uzoqligi.
9. Kuch. Nyuton qonunlari.
10. Ishqalanish kuchlari.
11. Elastiklik kuchlari. Og'irlilik kuchi. Arximed kuchi.
12. Butun olam tortishish qonuni. Kepler qonunlari. Kosmik tezliklar.
13. Jismarning qiya tekislikdagi harakati. Bloklar.
14. Mexanik ish va quvvat. Mexanik energiya. Kinetik va potensial energiya.
15. Energiyaning saqlanish va aylanish qonuni. Jism impulsi va uning saqlanish qonuni.
16. Relyativistik mexanikada massa, tezlik va uzunlik.
17. Inersiya momenti. Aylanma harakat qilayotgan jismning tezligi va energiyasi.
18. Aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi.
19. Impuls momenti va uning saqlanish qonuni.
20. Suyuqlik va gazlarda bosim. Uzluksizlik tenglamasi. Bernulli tenglamasi. Jismarning qovushqoq muhitdagi harakati.
21. Mexanik tebranishlar. Tebranishlarni qo'shish.
22. Mexanik to'lqinlar. Akustika.
23. Relyativistik dinamika asoslari
24. Molekulular kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi
25. Ideal gaz holat tenglamasi.
26. Ideal gaz qonunlari. Izojarayonlar.
27. Barometrik formula.
28. Bolsman taqsimoti.
29. Molekulalarning tezliklar bo'yicha taqsimoti
30. Ideal gaz ichki energiyasi.
31. Ish va issiqlik miqdori
32. Gazlarning issiqlik sig'imi.
33. Issiqlik sig' imlarini o'lhash
34. Adiabatik jarayon Adiabatik jarayon jarayonda bajarilgan ish. Politropik jarayon.
35. Gaz molekulalarining o'rtacha to'qnashishlar soni. O'rtacha erkin yugirish yo'li.

- | | |
|--|--|
| | <p>36. Diffuziya hodisasi. Diffuziya koeffitsientini hisoblash
 37. Gazlarda issiqlik o'tkazuvchanlik.
 38. Gazlarning qovushqoqligi (ichki ishqalanish)
 39. Entropiya.
 40. Termodynamikaning ikkinchi qonuni
 41. Karno sikli. Issiqlik mashinalari. Otto va Dizel sikllari
 42. Real gazlar. Van-der-Vaals tenglamasi
 43. Suyuqliklarning hajmiy xossalari.
 44. Sirt taranglik. Suyuqliklarning bug'lanishi va qaynashi
 45. Qattiq jismlarning asosiy fizik xossalari.
 46. Qattiq jismlarning mexanik va termodynamik xossalari.</p> |
|--|--|

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid masalalarni amaliy kuzatish va tahsil qilish kabi masalalar amalda bajariladi hamda o'rgatiladi.

Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahsil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. To'g'ri chiziqli harakatda yo'l, tezlik va tezlanish tenglamalari va grafiklari
2. Tezlik va tezlanishning koordinata (slindrik va sferik koordinatalar sistemasi) usulida berilishi
3. Tekis aylanma harakat uchun asosiy kattaliklar.
4. Egri chiziqli harakatda markazga iringa tezlanish
5. Tekis o'zgaruvchan aylanma harakat va bu harakat uchun asosiy kattaliklar
6. Tekis shakldagi jismning ixtiyoriy nuqtasining tezlanishini aniqlash
7. Tezlanishlarning oniy markazi va uni aniqlash
8. Dinamikaning birinchi qonuni.
9. Galileyning nisbiylik prinsipi. Inersial va noinersial sanoq sistemalari.
10. Dinamikaning qonunlari
11. Ishqalanish va uning turlari. Ishqalanish kuchi
12. Ishqalanish kuchi ta'sirida jismning gorizontal va qiya sirdagi harakati
13. Suyuqlik sirtida suzayotgan qayiq yoki kemaning harakati
14. Gorizontal tekislikda harakatlanayotgan avtomobilning harakati (kichik tezliklar uchun)

15. Gorizontal tekislikda harakatlanayotgan avtomobilning harakati (kattaroq tezliklar uchun)
16. Deformatsiya va uning turlari haqida tushuncha.
17. Bo'ylama deformatsiya uchun guk qonuni va cho'zilish diagrammasi
18. Kepler qonulari va jismning markaziy kuch maydonida qiladigan trayektoriyalari
19. Inersiya kuchi va uni yo'nalishi.
20. Tangensial, normal va umumiy inersiya kuchlari
21. Mexanik ish.
22. Turli kuchlarning bajargani ishi.
23. Ish va energiya orasidagi bog'lanish
24. Absalyut noelastik urilish va bu urilish uchun turli xususiy hollar
25. Absalyut elastik urilish va bu urilish uchun turli xususiy hollar
26. Massa markazi. Massa markazini aniqlash formulalari
27. Jismning bir necha kuch ta'siri ostidagi harakati (shkvining massasi e'tiborga olinganda)
28. Maksvell mayatnigining tebranishi
29. Qiya sirdtan dumalab tushayotgan jismning tezligi, tezlanishi va kinetik energiyasi
30. Qiya sirdtan dumalab tushayotgan jismning tezligi, tezlanishi va kinetik energiyasi
31. Yerning presessiyasi. Presessiya davri
32. Prujinali mayatnikning erkin tebranishi
33. Matematik mayatnikning real tebranishi
34. Mexanik tebranishlarni qo'shish. Lissajular
35. Yarimslindrning gorizontal sirtda irg'anishi
36. Yarimsharning gorizontal sirtda irg'anishi
37. Yarimsferaning gorizontal sirtda irg'anishi
38. Yarimtruba (yarimslindrik qobiq)ning gorizontal sirtda irg'anishi
39. Kichik dumaloq jismning botiq egri sirtda tebranishi
40. Bir vaqtlikning, uzunlikning va vaqt oralig'ining nisbiyliklari hamda relyativistik tezliklarni qo'shish qoidalari
41. Relyativistik doppler effekti.
42. Qizilga va binafshaga siljish hodisalari.
43. Issiqlik mashinalari
44. Entropiya
45. Broun harakati
46. Bernulli tenglamasi
47. Fermi – Dirak taqsimoti
48. Boze – Eynshteyn taqsimoti
49. Ichki ishqalanish koeffitsienti va harakat miqdori oqimini hisoblash
50. Klauzius tenglamasi
51. Diterichi tenglamasi
52. Van-Der-Vaal tenglamasi

	<p>53. Laplas formulasi</p> <p>54. Dyulong – Pti formulasi</p> <p>55. Molekulyar kinetik nazarriyaning asosiy tenglamasi</p> <p>56. Molekulalarning tezliklari.</p> <p>57. Ichki energiya. Gazlarning issiqlik sig‘imi</p> <p>58. Maksvell taqsimoti</p> <p>59. Gaz molekulalarining erkin yugirish yo‘li.</p> <p>60. Gaz molekulalarining o‘rtacha to‘qnashishlar soni</p> <p>61. Gazlarda diffuziya.</p> <p>62. Gazlarda ko‘chish hodisalari.</p> <p>63. Issiqlik o‘tkazuvchanlik.</p> <p>64. Termodinamikaning I qonuni.</p> <p>65. Gazning bajargan ishi. Izotermik jarayonda bajarilgan ish.</p> <p>66. Adiabatik jarayonda bajarilgan ish.</p> <p>67. Politropik prosesslar. Issiqlik mashinasи.</p> <p>68. Entropiya. Van-der-Vaals tenglamasi.</p> <p>69. Kritik holat.</p> <p>70. Van-der-Vaalsning keltirilgan tenglamasi. To‘yingan bug‘.</p> <p>71. Sirt taranglik kuchi.</p> <p>72. Gaz qonunlarini o‘rganish</p> <p>73. Xavoning nisbiy namligini aniqlash</p> <p>74. Gazlarni suyultirish. Gazlarni suyultirish usullari</p> <p>75. Joul-Tomson effekti</p> <p>76. Suyuq geliy.</p> <p>77. Suyuqliklarning hajmiy xossalari. Suyuqliklarning issiqlik sig‘imi.</p> <p>78. Suyuqliklarda ko‘chish hodisalari.</p> <p>79. Suyuqliklar fizikasi</p> <p>80. Sirt taranglik kuchi. Sirt taranglik koeffitsientini o‘lhash usullari</p> <p>81. Suyuqliklarning bug‘lanishi va qaynashi</p> <p>82. Qattiq jismlar va ularning turlari.</p> <p>83. Qattiq jismlarning asosiy xossalari</p> <p>84. Kristall va amorf jismlar.</p> <p>85. Kristall panjara. Kristallarning defektlari</p> <p>86. Qattiq jismlarning mexanik xossalari.</p> <p>87. Kristallarda dislokatsiya</p> <p>88. Elastik deformatsiya va issiqlikdan kengayish</p> <p>89. Polimer qattiq jismlar va ularning tuzilishi</p> <p>90. Keramik qattiq jismlar fizikasi</p>
3.	<p>IV. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiylar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mehanika va molekulyar fizika fani fizikaning barcha bo‘limlari: nazariv fizika, astoronomiya, astrofizika bilan o‘zaro bog‘liq, hamda oliv

	<p>matematika, informatika va axborot texnologiyalari, kimyo, biologiya, geografiya kabi tabiiy-ilmiy fanlar bilan uzviy bog'langanligi bo'yicha talaba ushbu fanlardan yetarli haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mexanika va molekulyar fizika fanini o'zlashtirgan talaba makro va mikro dunyoda sodir bo'ladigan harakat va uning turlari va ularni klassifikasiyalash bo'yicha foydalana olishi; (ko'nikma). <p>Talaba Mexanika va molekulyar fizika fanini o'qitishda foydalanilgan ta'lif texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, virtual laboratoriylar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalanish, shuningdek mustaqil ta'lif, aqliy hujum, vaziyatlari masalalarini yechish, rollikli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishini amalga oshirish malakalarga ega bo'lishi kerak</p>
4.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruza; • keys-stadi; • individual loyihiilar; • taqdimotlar qilish; • guruhlarda ishlash; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish; • "BBB", "Tarozi", "SWOT-tahlil", "Sinkveyn", "FSMU", o'yin, musobaqa.
5.	<p style="text-align: center;">VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarini to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma, test, og'zaki topshiriqlardan birini bajarishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. Asosiy adabiyotlar:</p> <p style="text-align: center;">VII. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Турсунов И.Г., Мухамедов.Г.И., Бабушкин О.Л., Общая физика. Механика и малекулярная физика, "Университет" Тошкент -2020 2. B.X.Eshchanov, M.B.Dusmuratov, U.R.Rustamov., Umumi fizika (Mexanika va molekulyar fizikadan masalalar yechish). "Yangi chirchiq book" Toshkent- 2023 3. I.G.Tursunov, Umumi fizika, Ishonchli hamkor-Toshkent 2021 4. М.Б.Дустмуратов.Ш.Б.Ахмедов, Л.Ю.Тураева., Физика Ч.1.(Механика и малекулярная физика) (Часть 1), "YANGI CHIRCHIQ BOOK" Toshkent 2022 5. X.S.Daliev, E.X.Bozorov., Umumi fizikadan masalalar to'plami, "Tafakkru avlod" Toshkent-2021 <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p>

1. М.Улмасова ва б. Физикадан практикум. Механика ва молекуляр физика. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1996.
2. Ж.А.Тошхонова, И.Исмоилов ва б. Физикадан практикум. Механика ва молекуляр физика. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1996.
3. Г.Х.Хошимов, Р.Я.Расулов, Н.Х.Юлдашев. Квант механика асослари. Тошкент.: “Ўқитувчи”, 1995.
4. В.С.Волкенштейн. Сборник задач по общему курсу физика. Москва, "Наука", 1992.

Axborot manbaalari

1. www.csp1.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz

7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “ <u>2024</u> ” <u>08</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	<p>Fan uchun mas'ullar:</p> <p>I.G.Tursunov – ChDPU “Fizika” kafedrasi professori, f.-m.f.d.</p> <p>U.Eshniyozov – ChDPU “Fizika” kafedrasi dotsenti v.b. p.f.f.d (PhD)</p> <p>H.Abdullayev – ChDPU “Fizika” kafedrasi o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>K. Nasriddinov – ChDPU “Fizika” kafedrasi professori, f.-m.f.d.</p> <p>E.B.Xujanov – TDPU Fizika va uni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dotsent</p>